

## «Yangi O'zbekiston va yangicha dunyoqarash» mavzusidagi tadbir

Xuddi shu nom ostida tashkil etilayotgan tadbirlar shakl va mazmun jihatidan o'ziga xoslik kasb etmoqda. O'rta Chirchiq tumanidagi 3 - umumiy o'rta ta'lim maktabida 12- noyabr kuni o'tkazilgan tadbir haqida ham shu fikrlarni aytish mumkin. Unda TIQXMMI, «Fizika va kimyo» kafedrasida professor o'qituvchilari, Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani Qorasuv mahallasi xodimlari, tuman madaniyati mas'ullari, mahalla faollari, mahalla Nuroniya jamiyati xodimlari, mahalla aholisi ishtirok etishdi.



Ma'rifiy tadbir "Fizika va kimyo" kafedrasida dotsenti S. Xodjibekov tomonidan ochib berildi. Tadbir davomida tuman, mahalla faollari va 3-maktab o'quvchilari ishtirokida badiiy ko'rinishlar, chiqishlar qilindi.



Tadbir yakunida Nuroniya jamiyati tomonidan mahallaning namunali oilalariga sovg'alar taqdim qilindi. Kafedra dotsenti A. Axmedov tomonidan aytilgan Vatanga muhabbat, sadoqat mavzusidagi qo'shiqlar barchaga, ona Vatanga mustaqil O'zbekistonga bo'lgan muhabbatini yanada oshirdi. Mahalla aholisi tomonidan shunday tadbirlar sonini ko'paytirish taklifi berildi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**